

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**I RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2-jild, 1-son (yanvar, 2026-yil). – 80 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 8-yanvar

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Foziljonov Khojiakbar

KEY STAGES OF RECOVERY OF VISUAL INFORMATION FROM SIDE ELECTROMAGNETIC RADIATION VIDEO PATHS OF COMPUTING SYSTEMS 5-9

IQTISODIYOT FANLARI

Murtazayev Isabek

ZARAFSHON MINTAQASI SHAROITIDA

BUXORO VILOYATI SANOAT RIVOJLANISHI 10-13

Mamanov Muxammadamin

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TURIZM KORXONALARINI SAMARALI

BOSHQARISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 14-18

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA ERKINLIK VA XAVFSIZLIKNING ETIK CHEGARALARI 19-24

FILOLOGIYA FANLARI

Muzaffarov Javlon

UZUKLAR HUKMDORI" ROMANIDA ARXAİK EPOS AN'ANALARI RIVOJI 25-27

Po'latova Lobar

O'ZBEKISTON MTRK AXBOROT DASTURLARIDA BOSHLOVCHINING NUTQ MADANIYATI VA

UNING AUDITORIYAGA TA'SIRI 28-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Xomidjonov Abrorjon

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QUV MOTIVATSIYASINI OSHIRISH

STRATEGIYALARI 37-42

Buriyeva Sobira

YAPONIYADA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINI TAYYORLASH VA

QAYTA TAYYORLASH TIZIMINING O'ZIGA XOS JIHATLARI 43-46

Nodirova Feruza

SHE'RIYATDA BADIY OBRAZNING O'ZIGA XOSLIGI

(Sa'dulla Hakim she'riyati misolida) 47-54

Sodiqova Gulnora

XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA ISH BERUVCHILARNI KASBIY TA'LIM TIZIMIGA

JALB QILISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI 55-60

Arustamyan Yana, Toshpulatov Omonullokhon

DATA-DRIVEN MANAGEMENT AND MANAGEMENT INFORMATION SYSTEMS (MIS) IN

UZBEK HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-64

Djamilov Nurali

TARIX DARSLARIDA TARIXIY ATAMALARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK

TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH 65-67

Abdullayeva Muyassar

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TA'LIM MUHITIGA MOSLASHUVIDA SOG'LIQNI

SAQLASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI 68-70

TIBBIYOT FANLARI

Hurmatmatova Nigina

ДЕМЕНЦИЯ: ЭТИОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

К РАННЕЙ ДИАГНОСТИКЕ 71-73

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATSIYA ORQALI AUDITORIYA BILAN

SAMARALI MULOQOT O'RNATISH 74-79

IQTISODIYOT FANLARI

ZARAFSHON MINTAQASI SHAROITIDA BUXORO VILOYATI SANOAT RIVOJLANISHI

Murtazayev Isabek Bazarbayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası

dotsent v.b., i.f.f.d. (PhD).

Email: Isabekmurtazayev72@gmail.com

ORCID: 0009-0005-9012-1918

Annotatsiya. Tezisda Buxoro viloyati sanoat sektori rivojlanishi, tarmoqlar dinamikasi va neft-gaz hamda qurilish xomashyosi kabi tabiiy resurslarning sanoat ixtisoslashuviga ta'siri tahlil qilingan. Neftni qayta ishlash, oziq-ovqat, to'qimachilik va nometall mineral mahsulotlar sanoatining ustunligi hamda viloyatning respublika sanoatidagi o'rni baholangan. Shuningdek, sanoatning hududiy tarkibi, eksport-import tendentsiyalari va diversifikatsiya zarurati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sanoat rivojlanishi; tarmoq ixtisoslashuvi; xomashyo bazasi; mehnat resurslari; eksport va import; hududiy sanoat tarkibi.

INDUSTRIAL DEVELOPMENT OF BUKHARA REGION IN THE CONDITIONS OF ZARAFSHAN AREA

Murtazayev Isabek Bazarbayevich

Mirzo Ulughbek National University of Uzbekistan,

Faculty of Economics, Department of Economic Theory

Associate Professor (acting), PhD.

Annotation. The thesis analyzes the development of the industrial sector of the Bukhara region, the dynamics of its branches, and the impact of natural resources-such as oil and gas reserves and construction raw materials-on industrial specialization. It evaluates the dominance of oil refining, food processing, textile production, and non-metallic mineral industries, as well as the region's role within the national industrial structure. Additionally, the territorial composition of industry, export-import trends, and the need for further diversification are highlighted.

Key words: industrial development; sectoral specialization; raw material base; labor resources; export and import; territorial industrial structure

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i1/n02>

Zarafshon mintaqasining janubi-g'arbida joylashgan Buxoro viloyatining O'zbekiston YaIM dagi sanoat mahsulotining salmog'i 2024 yilga nisbatan, 4,9 % ni tashkil etadi.

Viloyatning g'arbiy va janubiy qismlarida neft-gaz va gaz konlari mavjud bo'lib, ularning ayrimlarida zaxiralar ancha kamaygan bo'lsa-da (Gazli, Uchqir va h.k.), ayrimlari yaqin vaqtdan boshlab ishga tushirilgan (Qandim konlari guruhi). Undan tashqari, viloyat hududida turli qurilish xomashyosi ham qazib olinadi. Qurilish xomashyosi ko'proq Kogon tumani hududidagi kichik ko'tarilmalarda joylashgan. Quljuqtov tog'larida grafit (Tasqazgan) va mineral bo'yoqlar (Jongeldi-Toshquduq) konlari mavjud.

Funktsional jihatdan Buxoro shahri ko'p funktsiyali viloyat markazi, yirik turistik markaz hisoblanadi. Boshqa shaharlardan Kogon sanoat-transport markazi, G'ijduvon ko'p funktsiyali tumanlararo markaz, Qorovulbozor va Gazli tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari (resurs shaharlar yoki monoshaharlar), qolgan shaharlar esa mahalliy agrosanoat va servis funktsiyali tuman markazlari hisoblanadi.

Viloyat mehnat resurslarining soni jihatidan, 2024-yil holatiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlaridan sanoat sohasida bandlar 12,0 % ni, qurilishda 12,6 %, tashkil etadi. Viloyat YaHM dagi sanoat va qurilishning ulushi 25,0 % (respublika YaIM dagi ulushi 31,1 %) ga teng.

Buxoro viloyati respublika miqyosida, asosan, neftni qayta ishlash sanoati (mamlakat bo'yicha tarmoq mahsulotlarining 81,4 % i, 1-o'rin), yengil sanoat (7,3 % i, 8-o'rin), oziq-ovqat mahsulotlari sanoati (5,6 %, 6-o'rin) va qurilish materiallari sanoati (5,5 %, 6-o'rin) rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Viloyatda 2024-yilda 27,2 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan va bu ko'rsatkich o'tgan yilga qaraganda 106,2 % ga o'sgan. Respublika sanoati hududiy tarkibida viloyatning hissasi 4,9 % ni tashkil etadi (2010-yilda 4,4 %) va bu respublika hududlari orasidagi 7-chi ko'rsatkich hisoblanadi. Mintaqa sanoati tarmoq tarkibida ishlab chiqaradigan neftni qayta ishlash mahsulotlari (39,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (19,0 %), to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (17,7 %) nisbatan rivojlangan tarmoqlar hisoblanadi. Boshqa nometall mineral mahsulotlar (4,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (4,1 %), Kiyim ishlab chiqarish (3,1 %) sanoati birmuncha ajralib turadi (1-jadval).

1-jadval

Buxoro viloyatida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (foizda)

Yillar	2000	2005	2010	2015	2020	2023	2024
Sanoat mahsuloti hajmi, foizda	100	100	100	100	100	100	100
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2,0	3,0	4,0	10,3	1,4	1,4	0,9
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	10,0	12,5	15,2	21,4	15,9	13,4	19,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	20,0	25,0	29,2	22,3	17,8	18,7	17,7
Kiyim ishlab chiqarish	0,5	0,8	1,1	0,4	3,4	2,4	3,1
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	55,0	45,0	36,4	28,2	46,7	48,7	39,0
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,3	0,5	2,1	1,5	1,3	1,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar	3,0	4,0	3,5	5,2	5,3	5,0	5,8
Mashina va uskunalar duna tashqari tayyormetall buyumlar	0,1	0,2	0,4	2,4	1,2	0,5	1,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	2,0	3,0	2,8	3,9	2,6	3,5	4,1
Boshqa tarmoqlar	7,2	6,2	6,9	3,8	4,2	5,1	7,2

Jadval ma'lumotlariga qaraganda mintaqa sanoatida neftni qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, boshqa nometall mineral mahsulotlar, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatlari barqaror o'sish tendentsiyasiga ega. Lekin, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hamda, tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoatining salmog'i yildan yilga tushib bormoqda. Buning sababi so'nggi yillarda asosiy o'zgarish tendentsiyasi neftni qayta ishlash sanoati ulushining ko'tarilishi va boshqa asosiy tarmoqlar salmog'ining pasayishidan iborat.

Viloyatdagi eng yirik sanoat korxonasi - Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (Qorovulbozor tumanida joylashgan) tomonidan 2024-yilda 993,4 ming tonna benzin, 317,4 dizel yoqilg'isi, 140,8 ming tonna kerosin, 78,1 ming tonna mazut ishlab chiqarilgan. Shuningdek, viloyatdagi sanoat korxonalari tomonidan 15,4 ming tonna suyultirilgan gaz, 89,5 ming tonna paxta tolasi, 66,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni, 3,6 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i, 317,9 ming litr uzum vinosi, 6807,8 ming litr aroq, 151,6 ming tonna asfaltli aralashmalar, 33,4 ming tonna omuxta-em ishlab chiqarilgan.

Mintaqa sanoatining hududiy tarkibida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi hisobiga Qorovulbozor tumani 48,4 % lik salmog'i bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, Buxoro shahri (10,9 %), G'ijduvon (6,5 %), Kogon (5,6 %) va Romitan (5,2 %) tumanlarining ulushi nisbatan ajralib turadi. Eng past salmoq Olot (1,3 %), Vobkent (2,0 %) va Peshko' (2,7 %) tumanlariga tegishli.

Sanoat tovarlari eksporti tarkibida, asosan, to'qimachilik mahsulotlari (43,1 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, asosan, neft mahsulotlari (22,7 %) va oziq-ovqat mahsulotlari (11,9 %) asosiy o'rin egallaydi. Import tarkibida esa eng katta ulush mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, asosan, xom neft (50,4 %), mashinalar va transport asbob-uskunalar (22,7 %) hamda kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar (10,1 %) ga to'g'ri kelgan.

Ma'muriy-hududiy birliklar kesimida olganda, viloyat iqtisodiyotining hududiy tarkibida Qorovulbozor tumani viloyatdagi eng yirik sanoat korxonasi va tashqi iqtisodiy aloqalar sub'ekti hisoblanadigan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi hisobiga alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati, salmoqli mavqega ega.

Buxoro viloyatining sanoat sektori respublika iqtisodiyotining tarkibiy va hududiy rivojlanishida muhim o'ringa ega ekanligi ko'zga tashlanadi. Hududning tabiiy resurslar potentsiali, jumladan neft-gaz konlari, mineral xomashyo va qurilish materiallari bazasi sanoat tarmoqlarining ustuvorligini belgilaydi. Viloyatda neftni qayta ishlash sanoati asosiy rol o'ynaydi va uning viloyat YaIMdagi ulushi 39 % dan ziyod bo'lib, sanoat tarkibining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat tarkibida sanoat va qurilish sohalaridagi bandlik darajasi ham yuqori bo'lib, bu viloyat iqtisodiy salohiyatining ishchi kuchini samarali faoliyatga yo'naltirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Viloyatning sanoat mahsuloti hajmi 2024 yilda sezilarli darajada o'sishi, viloyatning respublika iqtisodiyotidagi rolining mustahkamlanishidan dalolat beradi.

Biroq, tog'-kon va to'qimachilik sanoatlaridagi kamayish tendentsiyasi viloyat sanoat tarkibining dinamikasini va iqtisodiy diversifikatsiyaning zarurligini ko'rsatadi. Bu borada neftni qayta ishlash tarmog'ining ustunligi hududiy iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va tarmoqlararo mutanosiblikni ta'minlashda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun viloyat

sanoatini barqaror rivojlantirish uchun iqtisodiy faoliyatning turli tarmoqlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

Hududiy jihatdan Qorovulbozor tumanidagi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi sanoatning markaziy nuqtasi sifatida sanoat sektoridagi hududiy tarkibni belgilaydi. Bu sanoat korxonasi viloyatning eksport salohiyati va tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtirokida ham asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari sanoat eksport tovarlari tarkibida katta ulushga ega bo'lib, viloyat iqtisodiy salohiyatini kengaytirish imkonini beradi.

Hozirgi paytda, viloyat sanoati uchun xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va texnologiyalarni takomillashtirish zarurati dolzarbligini saqlaydi. Sanoat tarmoqlari va hududiy infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali Buxoro viloyatining respublika iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlash imkoniyati mavjud.

Takidlash joizki, Buxoro viloyati sanoat sektorining hududiy va tarmoqlararo rivojlanishini samarali mutanosib boshqarish va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash hamda innovatsion jarayonlarni joriy qilish orqali viloyatning barqaror iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekiston sanoati: 2000-2024 yillar statistik to'plami".
2. Buxoro viloyati hokimligi. "Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati" yillik hisobotlari (2022-2024).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari – sanoatni jadal rivojlantirish va mineral resurslardan foydalanish siyosatiga oid hujjatlar.
4. "O'zbekiston Respublikasi milliy hisoblar tizimi" - YaIM va YaHM tarmoqlar kesimida. Toshkent: Statistika qo'mitasi, 2023.
5. UNIDO. Industrial Development Report. Vienna, 2023.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATION G'OYA VA YECHIMLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2-jild, 1-son (yanvar, 2026-yil). – 80 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 8-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.